



Conceptual Metaphors in English and Uzbek: Common conceptual metaphors are often shared between the two languages, though they may differ in form. Conceptual Domain English Example Uzbek Equivalent Cultural Note

Life is a journey “He has reached the crossroads of his life.” “Hayot yo‘li og‘ir.” (“The road of life is hard.”) Both languages conceptualize life as movement along a path.

Love is fire “She sparked my heart.” “Yuragimni yondirdi.” (“She set my heart on fire.”) The fire metaphor for passion is universal.

Anger is heat “He was boiling with anger.” “U jahli chiqib, qizib ketdi.” (“He got hot with anger.”) Both express emotion through physical temperature.

Time is money/value “Don’t waste time.” “Vaqtingni behuda sarf qilma.” (“Don’t spend your time in vain.”) Both languages use an economic metaphor for time.

These examples demonstrate conceptual similarity but linguistic variation, influenced by cultural norms and idiomatic usage.

Culture-Specific Metaphors: While many metaphors are universal, some are deeply rooted in each culture’s traditions and worldview. In Uzbek: “Ko‘ngli tog‘dek” (“His heart is like a mountain”) implies generosity, stability, and strength — values esteemed in Uzbek society. “Og‘zi asal, dili zahar” (“His mouth is honey, but his heart is poison”) represents hypocrisy and moral judgment, reflecting moral evaluation in Uzbek culture.

In English: “A cold shoulder” (showing indifference) or “butterflies in my stomach” (feeling nervous) illustrate embodied metaphors unique to English expression. Animal metaphors such as “a dark horse” (an unexpected winner) and “black sheep” (a family disgrace) reveal cultural symbolism specific to English-speaking contexts.

Cognitive and Cultural Interpretation: Uzbek metaphors often emphasize collectivism, moral values, and natural imagery (mountains, rivers, heart), reflecting an agrarian worldview and social cohesion. English metaphors, on the other hand, tend to focus on individual experience, productivity, and industrial or economic concepts. For instance, while Uzbek speakers might say “Hayot dengiz” (“Life is a sea”), expressing life’s unpredictability, English speakers might prefer “Life is a game” or “Life is a race,” reflecting a more competitive and goal-oriented perspective. These differences underline how metaphor functions as a window into the cultural cognition of each linguistic community.

Conclusion

Metaphor is both universal and culture-specific. The comparative analysis shows that Uzbek and English share many conceptual metaphors, but their linguistic realization and cultural interpretation differ. Uzbek metaphors are more emotionally and morally expressive, while English metaphors are more pragmatic and analytical. Understanding these distinctions enhances cross-cultural communication and translation accuracy.

References

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
2. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A Practical Introduction*. Oxford: Oxford University Press.
3. Bozorov, J. (2019). *Til va tafakkurda metaforaning o‘rni*. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Karimov, N. (2017). “O‘zbek tilidagi metaforalarning milliy xususiyatlari.” *Filologiya masalalari jurnali*, №3, pp. 45–52.
5. Charteris-Black, J. (2004). *Corpus Approaches to Critical Metaphor Analysis*. New York: Palgrave Macmillan.

ALGEBRAIK MATERIALLARNI O‘QITISH METODIKASINING AHAMIYATI

Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich

Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Email: abdurasulmirzaakbarov@gmail.com

Qambaraliyeva Maftuna Xamidullo qizi

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

E-mail: mqambaraliyeva011@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarga algebraik materiallarni o‘qitish metodikasi rivojlanish jarayonlari, zamonaviy ko‘nikmalar va turli-xil usullar yordamida ochib beriladi. Avval algebraik



materiallarning tarixi, rivojlanishi, tarkibi, mazmun-mohiyati ko‘rib chiqiladi. So‘ng esa bugungi kunda qo‘llanilayotgan amaliy va nazariy metodlar orqali kengroq tahlil qilinadi. Qolaversa, o‘quvchilarda mavzuga oid ko‘nikmalarini yanada mustahkamlash maqsadida qiziqarli metod va o‘yinlar keltiriladi. Bu maqola matematika o‘qituvchilari va talabalarga kreativ yondashuvlarni aniqlashda tajribaviy va nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ko‘nikma, algoritim, algebra, material, komputerlar, metod, vertikal, gorizantal, tenglama, sonli ifoda, harfiy ifoda, formula, funksiya, to‘plam, tengsizlik, monom, polinom, distributivlik, kommunikativlik, assotsiativlik, grafiklar.

THE IMPORTANCE OF METHODOLOGY OF TEACHING ALGEBRAIC MATERIALS

Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich
Teacher of Namangan State Pedagogical Institute
Email: abdurasulmirzaakbarov@gmail.com
Qambaraliyeva Maftuna Khamidullo qizi
Student of Namangan State Pedagogical Institute
E-mail: mqambaraliyeva011@gmail.com

Annotation: This article introduces students to the methodology of teaching algebraic materials using development processes, modern skills and various methods. First, the history, development, composition, content and essence of algebraic materials are considered. Then, a broader analysis is carried out using practical and theoretical methods used today. In addition, interesting methods and games are presented in order to further strengthen students' skills on the subject. This article serves as an experimental and theoretical foundation for mathematics teachers and students in identifying creative approaches.

Keywords: skill, algorithm, algebra, material, computers, method, vertical, horizontal, equation, numerical expression, literal expression, formula, function, set, inequality, monomial, polynomial, distributivity, communicativeness, associativity, graphs.

ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДИК ПРЕПОДАВАНИЯ АЛГЕБРАИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛОВ

Мирзаакбаров Абдурасул Мирзаакбарович
Преподаватель Наманганского государственного педагогического института
Электронная почта: abdurasulmirzaakbarov@gmail.com
Юсупова Азиза Абдулазиз кызы
Студент Наманганского государственного педагогического института
Электронная почта: mqambaraliyeva011@gmail.com

Аннотация: В данной статье студенты знакомятся с методикой преподавания алгебраических материалов с использованием процессов развития, современных навыков и различных методов. Сначала рассматриваются история, развитие, состав, содержание и сущность алгебраических материалов. Затем проводится более широкий анализ с использованием практических и теоретических методов, используемых в настоящее время. Кроме того, представлены интересные методы и игры для дальнейшего укрепления навыков студентов по предмету. Данная статья служит экспериментально-теоретической базой для учителей математики и студентов в выявлении творческих подходов.

Ключевые слова: навык, алгоритм, алгебра, материал, компьютеры, метод, вертикаль, горизонталь, уравнение, числовое выражение, буквенное выражение, формула, функция, множество, неравенство, одночлен, многочлен, дистрибутивность, коммуникативность, ассоциативность, графы.

Kirish. Hayotimizda o‘rganish kerak bo‘lgan bilimlarimiz juda ko‘p. Qolaversa, har bir fanni o‘z o‘rnida o‘rganish zarur. Shuningdek, matematika fani alohida ahamiyat kasb etadi. Matematika fani, xususan, algebrani o‘rganish o‘quvchida mantiqiy fikrlash, tahliliy yondashuv, va muammolarni ijodiy hal qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Shu asosida algebraik materiallarni o‘qitish jarayoni nafaqat bilim berish, balki, fikrlash madaniyatini rivojlantirishga asoslanadi. Algebraik materiallarni o‘qitish metodikasi



o’quvchida jarayonni tezlashtirish va samarali qilish uchun yordam beradi. Biz kimmiz, qanday ulug’ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o’zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan[1]. Bugungi kunda ta’lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biri bu-o’quvchilarda mustaqil va mantiqiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishdir. Ayniqsa, matematika fani bu borada eng muhim vosita hisoblanadi. Boshlang’ich ta’lim matematika fanining eng muhim vazifalaridan biri — o’quvchilarda ko’paytirish va bo’lish amallarini ongli va mustahkam shakllantirishdir. Bu amallar nafaqat keyingi matematik bilimlar uchun poydevor, balki mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va kundalik hayotda hisob-kitob qilish ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review// Литературный обзор). Algebra atamasi uzoq tarixi o’tmishga borib taqaladi. Taxminan, 7-9-asrlarda qadimgi Bobil, Misr Yunonistonda boshlangan, lekin bugungi ko’rinishi islom matematiklari tomonidan yaratilgan. Misol uchun, Al-Xorazmiy o’zining “Al-jabr val-muqobalaa” asarida algebraga asos soldi, o’nlik sanoq sistemasini ishlab chiqdi.

Hind olimlari nol va salbiy sonlar bilan ishlashni boshlaydilar. Keyinchalik, o’nlik sanash usullari ham hind va xitoy matematiklari tomonidan kelib chiqqan. 18-asrda Leonxard Eyler va boshqa olimlar algebraik nazariyalarni chuqurroq o’rgandilar. 19-asrda esa algebraning yangi yo’nalishlari, asosan, “Abstrakt algebraning rivojlanishi” boshlanadi. Bugungi kunda algebra matematika fanining ajralmas bo’lagi hisoblanadi. Shunday jarayonlardan yana biri shuki, prezidentimiz ham “Matematikani o’qitishning yangi tizimi to’g’risidagi” farmonga ko’ra, bu fanni hayotda, har bir sohada o’ziga kerakligini anglashi zarur. “Yoshlar imtixonidan o’tish uchun emas, bilimli mutaxassis bo’lish uchun o’qishi lozim”-deb ta’kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology//Методология исследования). Ayni paytda o’quvchilarga algebra faniga oid misollarni o’rgatishdan asosiy maqsad o’quvchilarning idroki, hozirjavobligi, mantiqiy fikrlashni o’rganishi, topqirligi va bilimni yanada oshirish hisoblanadi.

Maktab va o’rta maxsus ta’lim muassasalarida o’quvchilar uchun tafakkur qilishga oid masala vamisollar keng qo’llanilmoqda. Bu esa darsning qiziq va unimdor bo’lishini ta’minlaydi. Qo’shimcha qilib aytganda, ularni mustaqil ravishda fikrlash va ular yuzasidan xulosa chiqarish ta’kidlanmoqda[4].

Matematika ya’ni algebra fanida murakkab tushunchalar, algebraik formulalar ifodalar tenglamalar juda ko’p. Shu sababli, o’qituvchilar o’quvchilarga mavzuni ochib berishda qiynalishadi. Bunga yechim qilib shuni aytish mumkinki, murakkab tushunchalarni bosqichma-bosqich ketma-ketlik bilan tushuntirish tavsiya etiladi[3]. Har bir yangi mavzuni avval oddiy, hayotiy misollar orqali yechish kerak bo’ladi. Qiyin mavzularni o’zlashtirilmagan bolada motivatsiya pasayishi yuzaga keladi va qiziqishi so’nadi. Ba’zan o’qituvchilar algebraik materiallarni juda nazariy tarzda tushuntiradi, bu esa o’quvchilarning real tushunishini cheklaydi. Shuning uchun o’qituvchilar mavzuni diagramma, chizma, rangli belgilar yordamida ko’rgazmali qilib o’tishi kerak[2]. Turli xil o’yinlar, viktorina, mantiqiy masalalar, chellenj va zamonaviy texnologiyalar bilan mavhum fikrlashni aniqlashtirish masalasi nazarda tutiladi. O’qituvchi o’tayotgan mavzusini kichik bo’laklarga ajratib, har birini mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar asosida umumlashtirishi lozim.

Xatolarni tahlil qilish yuzasidan “Xatolarni o’rganish” metodini qo’llash mumkin.

O’quvchilarning bilim darajasiga qarab topshiriqlarni turlicha berish maqsadga muvofiq bo’ladi. Bu orqali, o’quvchilarda nafaqat guruhda ishlash, balki, individual yondashish hissi ortadi. Masalan: bir misol yordamida tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo’ladi.


Qafasda tustovuq va quyonlar bor. Ularning boshlari 19 ta, oyoqlari 62 ta. Qafasda nechta tustovuq va nechta quyon bor[5]? Bu masalani arifmetik yechish mumkin. Ammo eng sodda yechish usuli tenglama tuzib yechishdir. Tustovuqlar sonini x harfi bilan belgilaymiz. U holda tustovuqlar oyoqlari $2x$ ta. Quyonlar soni esa $19-x$ ta, ularda oyoqlar soni $4(19-x)$ ta. Masala sharti bo’yicha $2x+4(19-x)=62$, ya’ni $76-2x=62$. Tenglama bajarilishi kerak. Bu tenglamani yechamiz: $2x=76-62=14$, shuning uchun $x=7$. Demak, qafasda 7 ta tustovuq va 12 ta quyon bo’lgan.

Agar masala shartida quyon va tustovuqlarning oyoqlari soni 61 ta bo’lganida edi, $2x+4(19-x)=61$ tenglamani xosil qilgan bo’lar edik, bundan $x=7,5$ bu masala shartiga zid, chunki x - natural son. Biz masalani yechib, unda oyoqlarsoni 80 ta ekanligini toppish bilan ham ziddiyatga kelar edik. $2x+4(19-x)=80$ tenglamaning ildizi $x=-2$, lekin tustovuqlar soni manfiy bo’la olmaydi. Umuman, xsoni 18 dan katta bo’lmagan natural sonlardan iborat bo’lishi kerak (qafasda hech bo’lmaganda bitta quyon bor deb hisoblansa), ya’ni x soni $x=(1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12,13,14,15,16,17,18)$ to’plamga tegishli bo’lishi kerak.



Tenglamalarni yechishda ba’zi shakl almashtirishlarni kiritamiz. Masalan, $76-2x=62$ tenglamani yechishda tenglamaning ikkala qismiga $2x$ ni qo’shib, ikkala qismidan 62 ni ayirdik. Natijada $2x=14$ tenglama hosil bo’ldi. Uni yechish uchun tenglamaning ikkala qismini 2 ga bo’lamiz. Bu o’zgarishlarning har biridan keyin yangi tenglama hosil bo’ldi, ammo hosil bo’lgan tenglamalar $76-2x=62$ tenglama ham, $2x=14$ tenglama ham $x=7$ tenglama ham (bu ham tenglama) bitta yechimga, aynan 7 soniga ega bo’ldi.

Tahlillar va natijalar (Analyses and results//Анализы и результаты). Yana bir geometrik masalaga yondashuv: Uchburchakning biror uchidan uning qarshisidagi tomonga o’tkazilgan medianasi uchburchakning ikki uchidan baravar uzoqlikda yotishini isbotlaymiz.



Berilgan: ABC uchburchakda CD mediana.

Isbot qilish kerak: $AF=BE$.

Isboti: CD mediana $AD=DB$; $ADF=BDE$ (vertical burchak bo’lgani uchun). ADF va BDE uchburchaklar to’g’ri burchakli uchburchak bo’lgani uchun to’g’ri burchakli uchburchaklarning tenglik alomatiga ko’ra $ADF=BDE$ uchburchaklar bo’ladi. Bundan, teng uchburchaklarda teng burchaklar qarshisida teng tomonlar yotishi shartidan $AF=BE$ ekanligi kelib chiqadi. Bunday masalani yechishda nuqtadan to’g’ri chiziqqacha bo’lgan masofani to’g’ri tushunish masalaning yechimini topishga ko’rsatma bo’ladi. Bu alohida mavzu bo’lib, uni sirkul va chizg’ich yordamida yechiladi.

Algebraik materiallar faqatgina shu usullar bilan cheklanib qolmaydi, albatta. Bundan tashqari ham har xil usullar bor. Masalan matematik olimlarimiz Xorazmiy, Pifagor, Eyler, Paskal kabilar o’z xissasini qo’shganlar.

Boshlang’ich va yuqori sinflarda qo’llaniladigan algoritmik masalalar bor.

Darslarda qo’shish algoritmi (o’nli sanoq sistemasida) ikkinchi qo’shiluvchini xona birliklari mos keladigan qilib birinchi qo’shiluvchi tagidan yoziladi, birliklar qo’shiladi (agar yig’indi 10dan kichik bo’lsa) javobini birliklar xonasiga yoziladi keyin o’nliklar xonasiga o’tiladi. O’nliklar bilan so’ngra yuzliklar bilan va hokazo davom etadi. Hamma xona birliklari qo’shilgandan so’ng tamomlanadi. Xuddi shu kabi ayirish, ko’paytirish bo’lish va boshqa murakkab algoritmlarni yechish mumkin.

Xulosa (Conclusion//Заключение). Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, Yuqoridagi fikrlarni umimlashtirib shuni aytish mumkinki, o’quvchilarga algebraik materiallarni o’rgatish nafaqat matematik bilimlarni mustahkamlash, balki, ularda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, muammoni tezkorlik bilan hal qilish ko’nikmasini oshirish, ijodkorligini yanada kengaytirishda muhim rol o’ynaydi. Tarixiy qarashlar bu amallarning shakllanish bosqichiga yordam bersa, zamonaviy usullar bilan darsni qiziqarli o’tish imkonini beradi. Ayniqsa, noodatiy metodlar dars jarayonini jonlantirib, o’quvchilarda darsga diqqat bilan yondashuvini ta’minlaydi. Har bir sohaning o’qituvchisi o’z pedagogic mahoratini o’quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga mos qilib biriktira olsa, algebraik materiallarni o’rgatish yana ham oson va sarmazmun bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

6. Shavkat Mirziyoyev 15-iyun kuni Toshkentda bo’lib o’tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so’zlagan nutqidan.
7. Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich. The relevance of educating primary education students based on national content. (2025). *The Conference Hub*, 38-43. <https://theconferencehub.com/index.php/tch/article/view/170>



8. Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich. The relevance of educating primary education students based on national content. (2025). *The Conference Hub*, 8-12. <https://theconferencehub.com/index.php/tch/article/view/169>
9. Mirzaakbarovich M.A. Ways to teach future teachers to think logically through japanese puzzles. (2024). *Conferencea*, 12-16.
10. Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich. (2025). Pedagogical and psychological foundations of teaching students based on national content. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17228152>

TABIIY FANLARDA SAYYORALAR MAVZUSINI O‘QITISHNING SAMARALI METODLARI

Toshkent Kimyo Xalqaro Universitetining Samarqand filliali
Magistrant talabasi
Maxmadaminov Xurshid Mavlonberdiyevich

Annotasiya: Ushbu maqolada sayyoralar va osmon jismlari haqida ma’lumot olish va turli hil metodlardan to’g’ri foydalanishni o’rganish haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: Quyosh, Oy, Osmon, Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun, Umbriel, Ariel, Sayyoralar, Galileo Galilei, Gesper, NASA, Magellan, Mirzo Ulug’bek, J.Skiaparelli, V. Gershel, Bryus D. Kuper, Alena Shashko, Rem Vord, Lizzi Doyle, Kris Ferri, Gravitatsiya, Metod.

EFFECTIVE METHODS OF TEACHING THE TOPIC “PLANETS” IN NATURAL SCIENCES

Tashkent International University of Chemistry, Samarkand Branch
Master’s Student: **Makhmadaminov Khurshid Mavlonberdiyevich**

Annotation: This article discusses obtaining information about planets and celestial bodies, as well as learning to correctly use various methods of exploration.

Keywords: Sun, Moon, Sky, Mercury, Venus, Earth, Mars, Jupiter, Saturn, Uranus, Neptune, Umbriel, Ariel, Planets, Galileo Galilei, Gesper, NASA, Magellan, Mirzo Ulugbek, J. Schiaparelli, W. Herschel, Bruce D. Cooper, Alena Shashko, Rem Ward, Lizzie Doyle, Chris Ferrie, Gravity, Method.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ТЕМЫ «ПЛАНЕТЫ» В ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУКАХ

Самаркандский филиал Ташкентского Международного Химического Университета
Магистрант: **Махмадаминов Хуршид Мавлонбердиевич**

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы получения информации о планетах и небесных телах, а также изучение правильного использования различных методов их исследования.

Ключевые слова: Солнце, Луна, Небо, Меркурий, Венера, Земля, Марс, Юпитер, Сатурн, Уран, Нептун, Умбриэль, Ариэль, Планеты, Галилео Галилей, Геспер, НАСА, Магеллан, Мирзо Улугбек, Дж. Скиапарелли, В. Гершель, Брюс Д. Купер, Алена Шашко, Рем Ворд, Лиззи Дойл, Крис Ферри, Гравитация, Метод.

Tepangizda yetti (qavat) mustahkam (osmon)ni bino qildik. Yana charaqlab turuvchi chiroqni (quyosh)ni paydo qildik. (“Naba”)surasi, 12-13-oyatlar. Quyosh har kuni erta tongda sirtining bir tomonidan chiqib, kun bo’yi osmonda harakatlanadi. Kechga borib, u Yer sirtining boshqa bir tomoniga botadi. (Ya’ni Sharqdan-G’arbiga botadi). Go’yoki, Yer shari Yer bir joyda turadi-yu, Quyosh Yer atrofida aylanadi. Aslida Quyosh Yerga nisbatan bir joyda turadi. Yer esa Quyosh atrofida aylanadi. Bizga eng yaqin yulduzlardan biri- Quyoshdir. Yer osmonida u yorqin doira ko’rinishida ko’rinadi. Quyosh sababli sayyoramizda hayot bor, lekin uning quvvati va issiqligi yoqolsa, o’simliklar, hayvonlar va odamlar ham yashay olmagan bo’lar edi. Quyosh quyosh tizimiga energiya yuboradigan katta yonayotgan gaz sharidir. Quyosh bizning kundalik hayotimizda juda muhim rol o’ynaydi va Yerdagi barcha hayotni qo’llab-